



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYACHINING VAZIFASI

Z.Aripov,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari singari tarbiyalashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'ulyatli vazifani bajaradi.

Maqolada maktabgacha ta'lismuassasalarida tarbiyachining vazifasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiyachi, maktabgacha ta'lismuassasasi, tarbiyalanuvchi.

TASKS OF TEACHERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: The educator has an important and honorable job, as well as a responsible role in educating the younger generation as worthy children of our people.

The article examines the role of educators in preschool education.

Keywords: educator, educator, preschool, foster child.


Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh avlodni har tomonlama shakllangan yetuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Jamiyatimizning taraqqiy etishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon qamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan huquqiy demokratik davlat qurishni yetuk va malakali kadrlarsiz hal etib bo'lmaydi. Shu bois, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsad va vazifasi inson hamda uning har tomonlama o'sib ulg'ayishi, kamol topishi va farovonligi, shaxe manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ularning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish hamda eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq - atvorning andozalarini o'zgartirishga qaratildi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi ijtimoiy hayotda katnasha boshlaganda, uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, ayniqsa, jamoa ishlarida qatnashishida namoyon bo'ladi.

Boladagi mana shunday jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning yuz berishida bolaning rivojlanishi, ya'ni shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omil etakchi rol o'ynaydi.

Inson muayyan ijtimoiy tuzumining mahsulidir. Bu tuzum o'zgarishi bilan insonda ham o'zgarishlar faoliyati sodir bo'ladigan hayotiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, bola shaxsining shakllantirishga ta'sir etuvchi tashqi olam majmui tushuniladi. Shaxsning shakllanishi kishilik





jamiyatni tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Ta'lif-tarbiya natijasida bola o'zi yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy sistema bilan aloqaga kirishadi yoki munosabatda bo'la boshlaydi.

Bizning nazarimizda, shaxs ma'naviyati uning ongida kechadigan ijobiy mazmunga ega o'y fikrlari, niyatlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar mazmunining amaliy faoliyatidagi tatbiqida namoyon bo'luvchi ruhiy jarayondir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxs ma'naviyati asosida ijobiy mazmunga ega bo'lgan, o'y fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariyaning va ta'limotlar mazmunini tushunib etishishini e'tiborga olish lozim.

O'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaholat va qabixlik yo'llini to'sish, insoniylik, mehr-shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik, mehmondo'stlik, poklik, xush xulqlilik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Shunga ko'ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo'ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi bolani har tomonlama diqqat bilan o'rGANISHI, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi.


Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxeini har tomonlama kamol tonitirish jismoniy, akuliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir.

Tarbiya - kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajarib kelgan bo'lsa-da, ammo har bir jamiyatda tarbiyaning mazmuni maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Ta'lif - bolalarga bilimni tartibli bayon qilish jarayoni bo'lib, muayyan ko'nikma va malakalarni singdirish, ularning ongi va xulqiga ta'sir etish, aqlini, ongini, idrokini, dunyoqarishini, e'tiqodini va bilish faolligini rivojlantirishdir. Ta'lif berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta'lif ikki tomonlama jarayon bo'lib va o'qitishni o'z ichiga oladi.

O'qitish - pedagogik faoliyat bo'lib, bilim malaka, ko'nikmalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli va ish bilan birga mas'ulyatli vazifani bajaradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiatning qonunyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiyl va





maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini oshirish kabi naysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz... O'qituvchi-tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berishi uchun avvalo, murabbiyning ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak».

Tarbiyachi kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi ularning faoliyati (o'quv, o'yin, mehnat) mazmunli bo'lishi uchun kerakli materiallar bilan ta'minlashi zarur.

Bolalarni ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va uni bolalar bilan amalga oshiradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Tarbiyachi kun davomida olib boradigan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni rivojlantirish yo'llarni tona olishi kerak.


Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar uyshtirishi, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha amalga oshiriladigan ishining mazmuni, metodlari bilan tanishtirib borish, oila tarbiyasidagi ijobiylarni namunalardan o'zining ta'lim-tarbiyaviy ishlarida foydalanishi mumkin.

Shuningdek, bir yoshgacha bo'lgan bolalarning moddiy sharoiti har bir bolani va barcha bolalarni birgalikda o'z vaqtida har tomonlama, to'laqonli rivojlantirish hamda tarbiyalashni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi shart. Guruh xonalari o'z o'rniqa qarab ishlatiladi. Aynan bolalarning ochiq havoda uxlashi uchun, umumiyligi xona, ovqatlantirish, bedorlik naytida bolalar bilan o'yin mashg'ulotlari o'tkazish uchun mo'ljallangandir.

Bolalar hayotining birinchi yilda ularda xilma-xil xulq shakllari tarkib tonadi. Umuman, bir yoshgacha bolalar hayotini tashkil etishda kun tartibi katta o'rinni egallaydi. Shu bilan birga to'g'ri tashkil etilgan kun tartibini bolalar faolligisiz tashkil etib bo'lmaydi. Bolalarning bedorligini tashkil etishda, ularning turli xulq shakllaridagi ehtiyojlarini qondirish hamda bolaning muomala harakatlari, buyumli harakatlar, bilish tarbiyalash va-zifalarini hal etishga yo'naltirilgan faoliyatini murakkablashtirish ko'zda tutiladi.

Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar hayotini tashkil etish, avvalo, bolalarning o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olish, ularni har tomonlama rivojlantirish hamda turli tarbiya vositalarini maqsadli qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar hayotini tashkil etishda ularning mustaqilligi va erkin faoliyat uyshtirish ko'nikmalariga tayaniladi. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar harakatda ayrim mustaqillikni namoyon qiladi, ko'pincha kundalik turmush buyumlari bilan muloqotda bo'lish usullaridan xabardor, madaniy-gigienik malakalarga ega bo'ladilar, har xil faoliyat turlari, tengqurlari va tarbiyachilarga qiziqish bildiradilar.





Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining etakchilik roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bu ishni kalendar reja asosida hamda «Uchinchi mingyllikning bolası» tayanch dasturiga muvofiq amalga oshiradilar.


Tarbiyachining bolalar bilan muloqoti va bolalarning o'zaro muloqoti faoliyatining barcha turlarida sodir bo'lishi tufayli, bunda quvnoq ohangning saqlanishi muhimdir. Dastavval bolalar o'rtasidagi muloqot o'yinchoq bahonasida yuzaga kelishi mumkin. Bolalarda bunday hamkorlikdagi faoliyat naydo bo'lganidan keyin ularda kelishib olish zarurati yuzaga keladi. Tarbiyachi bolalar muloqotida xayrixohlik, muloyimlikni qo'llab-quvvatlaydi, birgalikda o'ynash qanday yaxshi ekaniga e'tiborni qaratadi. Aynan kichik guruhda oiladan bog'chaga birinchi bor kelayotgan bolalar muloqotda xudbinlikka moyil bo'ladilar, o'zlariga yoqqan o'yinchoqni birovga bergisi kelmaydi, faqat o'zigagina e'tibor berilishini talab qiladi. Tarbiyachi asta-sekin barcha bolalarni xushmuomala bo'lishga bir-birlariga xayrixoh bo'lishga o'rgatadi.

XULOSA

Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib faolligini o'stirish bolalarni xulqini xatti-harakatini real baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materialni oldindan tayyorlab qo'yishi yangi bilimni egallagan bilimlari bilan bog'lay olishi hamda bolalar egallab olishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nigmalar ularning yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi va ularni asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. S.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O'quv qo'llanma — T.: «O'qituvchi». 1993.
2. M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. — T., Nizomiy nomidagi TDPU. 1999.
3. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. Theoretical & Applied Science, (5), 425-427.
4. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1478-1484.
5. Ashurova, O. A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(05), 46-52.
6. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL





EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 88-90).

7. Anvarjonovna, A. O. (2021). Factors for the Development of Ecoesthetic Culture of Future Preschool Educational Professionals. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(5), 162-164.
8. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 2, pp. 254-258).
9. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 2, pp. 254-258).
10. Anvarjonovna, A. O. (2021). AESTHETIC CULTURE OF THE EDUCATOR. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (pp. 253-255).
11. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. Экономика и социум, (6-1), 129-132.
12. Джалолова, М., Рахманова, Э. Ю., & Косимова, Х. Н. (2021). ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Scientific progress, 1(6).
13. Косимова, Х. Н. (2021). КИТОБХОНЛИК КЎНИКМАСИНИ ШАКИЛАНТИРИШДА ОИЛАГА ПЕДАГОГИК ТАВСИЯЛАР БЕРИШ ТИЗИМИ. Scientific progress, 1(6).
14. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 481-484.
15. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INculcate NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. Conferencea, 31-32.

